

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14252069>

FUQAROLIK JAMIYATIDA YOSHLARNING TA'LIM-TABIYASINI SHAKLLANTIRISH

Ozoda Abdusattarovna Abdugaffarova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Boshqaruv Akademiyasi ilmiy izlanuvchisi

ozodaabdugaffarova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ma'rifat, ta'lism-tarbiya, ularga inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi sifatida qaralgan. Yoshlarning ta'lism-tarbiyasini birlamchi masalalaridan biri etib ilgari surilgan holda, ushbu siyosatning yaqin yillarda o'zining kutilgan natijalarining xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ta'lism-tarbiya, sharq Renessansi, uchinchi Renessans, milliy g'oya, "komil inson", "barkamol avlod", buyuk ajdodlar.

ANNOTATION

In this article, enlightenment, education, they are considered as the main condition and guarantee of human perfection and development of the nation. Education of young people one of the primary issues is the proximity of this policy conclusions of its expected results are presented over the years.

Key words: Spirituality, education, Eastern Renaissance, third Renaissance, national idea, "perfect human", "perfect generation", great ancestors.

KIRSH

Butun dunyoda jamiyatni axborotlashtirish jarayonlari tez sur'atlar bilan kechayotgan bir paytda moddiy ne'matlar va energiya bilan bir qatorda axborot inson diqqat-e'tiborining markaziy faoliyatining asosiy mahsuliga aylanmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda vatanparvarlik tarbiyasi, xalqimizning ezgu ideallari va oliyjanob maqsadlariga sadoqat g'oyalari shior darajasidagina qolib, milliy

g‘oyaning jahon tajri-basidan o‘tgan umuminsoniy qonuniyatlari va O’zbekistonga xos zamonaviy tamoyillarini amaliyotga tadbiq etishning samarali mexanizmlari joriy etilmagan. Yurtimizdagi yangilanish jarayonlari va islohotlarga dahldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o‘z o‘rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo‘lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning kontseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu esa sohada jiddiy bo‘shliq mavjudligini yana bir marotaba isbotlamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’naviyat - moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Ma’naviyat tushunchasi ning mazmuni bugungi kunda faqat “ma’ni”, “ma’no” degan so‘zlar doirasidan chegaralanib qolmaydi. Sababi, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha, har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan darajada alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Inson kamoloti, yangi O’zbekistonning ma’naviy qiyofasining takomillashuv darjasini, shaxsiy-axloqiy xususiyatlar va ma’rifiy fazilatlar majmui. Jamiyatning barcha sohalari bilan o‘zaro aloqador ma’naviy talablar va tamoyillar hamda inson hayoti va faoliyatini belgilovchi mezonlar tizimi.

Ma’naviyatni shakllantirish mezonlaridan biri ilmu ma’rifat, ta’lim-tarbiya bo‘lib, ularga inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi sifatida qaralgan. Kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo shaxsni ko‘rishi lozim. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, komil insonlar etib

voyaga yetkazish ishi ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib qoladi. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiya-dan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan yangicha isloh qilishga nihoyatda katta e'tibor qaratilayotganligining boisi ham shunda. Ko'plab mamlakatlar barqaror rivojlanishining yangi darajaga ko'tarilishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asos, bu - ta'lim, fan hamda innovatsiyadir.

NATIJALAR

Keyingi yillarda taraqqiyottning mutlaqo yangi xalqimizning ulug'ver qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoxda. Chunki bugungi O'zbekiston - kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas. Biz, ayni chog'da hayot-mamot masalasi - farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasini eng birlamchi masalalaridan biri hisoblaymiz. Bunday siyosat yaqin yillarda o'zining kutilgan natijasini beradi.

Bizning tabarruk zaminimizdan butun dunyo uyg'onishga turtki bergen Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olim va ijodkorlar yana ko'plab yetishib chiqishiga ishonamiz. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'-vorligi, milliy yuksalish barcha sohalarda qanday umumiylar maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiётning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifoda etadi.

Renessans (uyg'onish) atama sifatida uning mazmuni ancha keng:

madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishni bildiradi. Sharq renessansi - Sharq ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotidagi Uyg'onish, ya'ni Sharq xalqlari yuksalish davri. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik:

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davr, u al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg‘oniy, Buxoro tarixchisi Narshaxiy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar - Buxoriy, Termiziyy, Mutakallimlar - Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritishi bilan bog‘liq.

2. Ikkinci Renessansi XIV asr oxirgi choragi - XVI asr birinchi choragi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi 1,5 mln.kv. kilometr hududlarda hukmronlik qilgan (XIV-XVI asrlar) davriga to‘g‘ri keladi.

Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Husayin Voiz Koshifiy, Kamoliddin Begzod kabi buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirishimiz zarur bo‘ladi.

MUHOKAMA

Istiqlol yillarida bosib o‘tgan shonli yo‘limizga nazar tashlab, ertangi kuni-mizga, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonchimiz yanada ortmoqda.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o‘zgacha ekanini asoslash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Oldingi ikkala Renessans mustahkam ma’naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda adolat, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik asosida yuz bergen. Islom halollik va to‘g‘rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo‘yan. “Ilm izlab Chinga bo‘lsa-da, bor”, “Sendan harakat-menden barokat”, “Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” kabi ko‘plab shu kabi Hadislar, maqol-lar ajdodlarimizning ijtimoiy mo‘ljaliga aylangan edi.

Buyuk ajdodlarimiz til o‘rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig‘iga o‘ranib qolmagan, turg‘unlik, mahalliychilik ularga yot bo‘lgan.

“Baytul hikma”, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, umuman, islom olami olim-lari faoliyati o‘sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma’naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o‘rganmasdan, biz Uchinchi Renes-sansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya zarurligini taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining natijaviy maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishi hisoblanadi.

Jamiyat talablariga to‘liq javob beradigan kishi turli davrlarda har hil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal yer”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uyg‘un rivojlan-gan shaxs” atamalari ham qo‘llanilgan.

Mustaqillikdan keyin biz shaxsga nisbatan “komil inson”, yosh avlodga nisbatan “barkamol avlod” atamalarini qo‘llay boshladik. Gap atamada emas.

Qanday sifatni qo‘llaymaylik, kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendentsiyalarini va ayni paytda milliy ma’naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog‘imiz lozim. Binobarin, sun’iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan “to‘rtinchi sanoat inqilobi” insonga qo‘yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta’lim-tarbiya tizimini ularga moslash-tirishimiz kerak bo‘ladi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bog‘chalar va maktablar tizimida maqtanishga arzигulik ulkan ishlar qilindi. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari qurish hamda “Zamonaviy maktab” dasturini joriy etish borasidagi sa’y-harakatlar ham davom ettirilmoqda.

Bu iste’dodlarning intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, haётда munosib o‘rin egallashlari uchun yaratilgan imkoniyatlardir.

Prezident maktablari, ixtisoslashgan va ijod maktablari barpo etish, “Zamonaviy maktab dasturlarini joriy etish borasida ishlarimiz hamuzluksiz davom ettirilmoqda.

XULOSA

Yurtimizda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etildi. Oliy Majlis palatalari Yoshlar parlamentlari, Yoshlar akademiyasi tuzildi. “Yoshlar - kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida iqtidorli va tashabbuskor o‘g‘il-qizlarimizning 8 mingdan zièd biznes loyihibariga qariyb 1,7 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Ma’lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lgandagina yuksak taraqqiètga erisha oladi. Shu boisdan ham biz “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasi” doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta “Tarbiya” fanini joriy etildi.

Fuqarolik jamiyatida yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yana serqirra amaliy tadbirlarni amalga oshirimiz kerak bo‘ladi. Buning uchun buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatiga oid badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr asarlari, hujjatli filmlar yaratishi zarur. Ularning portretlari muktab, kollej, litsey, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, madaniyat saroylari, kutubxonalar, kino va kontsert zallari foyelarida, xatto metro bekatlarida bo‘lsa, yosh avlodga o‘rnak olish, taqlid qilish, intilish uchun imkoniyatlар yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. Mirziyoyev M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -T.: 2021. 294-295 b.
2. Yosh ota-onalikitobi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. 1-qism:
3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma. - T.:Muharrir nashriyoti, 2018. 7-bet.
3. Davronov Z. Barkamollikka da’vat maktublar. - T., “Iqtisod-moliya”, 2011. 116-bet.
4. Ramatov, J.S., Baratov, R.O., Sultanov, S.H., Kushakov, Fayzulla Abdullayevich., Valiyev, L.A., & Xasanov, M.N. (2022). Hozirgi davrda ijtimoiy

adolat haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlarning o‘ziga xos talqini. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 647-656.

5. Ismoil Saifnazarov, Sirojbek Habibullayevich Sultanov (2022). Ijtimoiy adolatni mustahkamlashda ijtimoiy tadbirkorlikni ustuvop jihatlapi. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.

6. Sh.G‘.Turaboyev, Z.T.Tairov, J.Z.Abdullayev, Sh.M.G‘ulomov, M.N.Hasanov. (2022). Forobiyning falsafiy asarlarida insonning kelib chiqishi . Journal of new century innovations,4(3),141-146.

7. Boboshev, Z. N., Hasanov, M. N., Nurullayev, E. A. (2022). Abu Nasr Forobiyning pedagogika fanining asoschisi sifatida.